



KASB-HUNAR TA'LIMI DIDAKTIK TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sharopova Lola Ro`zimurodovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. *Ta`limning didaktik tizimi - umumiy tushuncha. Kasb-hunar ta`limi o`zaro bog`langan 2 qismdan iborat: nazariy bilim va ishlab- chiqarish ta`limi. Ta`limning bu ikki turi ta`lim mazmunini ajratish, ularni o`rganish izchilligini belgilash zarurligi bilan bog`liqdir. Bunday prinsiplar tartibi o`qitishning ishlab - chiqarish ta`limi tizimining qaysi birida qo`llanishiga bog`liqdir. Keyingi yillarda o`quv ustaxonalarida konstruksion-texnologik tizim bo`yicha mashg`ulotlar tashkil etilmoqda. Bu tizimning asosiy g`oyasi talabalarni ijodiy faoliyatini oshirishdan iboratdir.*

Kalit so`zlar: *ijodiy g`oya, texnik ijodkorlik, ko`nikma va malakalarini shakllantirish, kasb-hunar ta`limi.*

Kirish. Talabalar biror buyumni tayyorlashda avval uning loyihasi ishlab chiqadi va ishlov berish jarayonini amalga oshirishi kerak bo`ladi. Talabalar biror kiyimni tikish uchun avval o`lchov olishi, so`ngra asosiy andoza tayyorlashi, modellashtirishi, andozani tartib bilan gazlamaga joylashtirishi, buyumni bichishi va tikish kabi murakkab jarayonlarni bajarishi lozim. Bu jarayonni bajarish talabalarning ijodiy faoliyatlari oshiradi. Ijodiy ishga talabalarni idrok qilish yo`li bilan emas, balki fikrlash faoliyati oshirish orqali erishiladi. Ijodiy ishlash jarayoni g`oyani paydo bo`lishi muhimdir. Talabalarning ijodiy faoliyatlarini amalga oshirishda pedagogik rahbarlik katta ahamiyatga ega. Talabalarning har xil savol va masalalarini mustaqil hal qilishi uchun imkoniyatlardan iborat faoliyatga qatnashtirish va shunga ko`ra turli darajadagi fikrlash faolligida amalga oshirish mumkin. Talabalarni ijodiy g`oyaga keltirish yoki ular oldida to`g`ridan-to`g`ri ijodiy xarakterdagi savol va masalalarni qo`yishi, talabalarga texnik ijodkorlik uchun topshiriqlardagi imkoniyatlarni va ulardan foydalanishni anglatish lozim. Talabalarni fan va ishlab - chiqarish asoslariga oid bilimlarini faollashtirish va qo`llashga undash talabalarga fan va ishlab-chiqarish sohasidagi turli usullardan foydalanib, bilim, amaliy ko`nikma va malakalarini shakllantirish, o`quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rag`batlantirish, ularni maqtash, eng yaxshi ishlar ko`rgazmasini tashkil qilish, ommaviy axborot vositalarida talabalarning yutuqlarini ommalashtirish va boshqalar bilan ijodiy faoliyatni rag`batlantirish mumkin. Talabalarning texnik ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan mehnat topshiriqlari mazmuni bo`yicha konstruksiyalash yoki loyihalash; texnologik jarayonlarni tuzish; mehnatni to`g`ri tashkil etish guruhlariga bo`linadi. Texnik ijodkorlikni rivojlantirishni eng sodda topshiriqlardan boshlash va o`quvchilarning mustaqilligini orttirish, ular buyumlarni konstruksiyalay oladigan, texnologiyani ishlab chiqa oladigan, o`z mehnatlarini uyushtiradigan bo`lishi uchun mazkur





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirib borishi kerak. Kasb-hunar ta'limi tizimida kichik malakali mutaxassislarni tayyorlash kasb ta'limi o'qituvchilari va o'quv ustasining layoqatlariga bog'liqdir.

Didaktik kompetensiyani shakllantiruvchi mustaqil topshiriqlar: o'quv materiali mazmuni va mohiyatini yorituvchi o'quv axborotlari majmuasini hamda didaktik materiallarini ishlab chiqishga qaratilgan. Yozma mustaqil topshiriqlar: hisoblash uchun berilgan vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to'ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish, laboratoriya, amaliy ishlar to'g'risida hisobotlar tuzish va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi. Grafik mustaqil topshiriqlar: ularga turli chizmachilik ishlarini eskizlashtirish, kesmalar va kesishmalarni tasvirlash, ayrim detal va tugunlarni chizib ko'rsatish, sxemalar, grafiklar, diagrammalarni tuzish, kuzatish natijalarini tasvirlash va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi. Amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriqlar: talabalar o'qituvchi topshirig'i asosida mustaqil ishni bajarish jarayonida ma'lum detal tayyorlash, tugun va mexanizmlarni yig'ish, texnik jarayonlarni ishlab chiqadilar.

Muayyan fanlar bo'yicha ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishga darsliklardan o'rin olgan, ilm ahliga, darslik muallifi va ta'lim beruvchiga avval ma'lum bo'lgan ilmiy va hayotiy haqiqatlarni har bir ta'lim oluvchi o'zining imkoniyati doirasida o'z yo'li bilan anglatiladi. Darslik yoki o'quv qo'llanmalardagi yoki ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan savoltopshiriqlar ta'lim oluvchini matn mazmunini hikoya qilishga (ayrim hollarda yodlab olishga) majburlamasligi kerak. Demak, mustaqil ta'lim – bu olingan bilim ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materiallarni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli. Albatta, talabalarning mustaqil bilim olishini yo'lga qo'yish natijasida dars jarayoni samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini ko'tarish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, uning ta'lim berish jarayonini to'g'ri tashkil eta olishiga bog'liqdir. Agar talaba uchun barcha yetarli sharoitlar – o'quv materiallari, kompyuter texnikasi, avtomatlashtirilgan dastur - kabilar bo'lsa-yu, undan foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmagan, o'quv jarayoni to'g'ri tashkil etilmagan bo'lsa, yuqori natijaga erishib bo'lmaydi. Har qanday holatda ham o'qituvchi va talabaning o'zaro munosabatlari muhim o'rin egallaydi. Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo'yicha talabalarga zaruriy uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar hamda turli shakldagi mustaqil ish topshiriqlari ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N.A. "Kasb talimi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi". T.Fan va texnologiya. 2013 yil.
2. To'raqulov O.X, Turmatov J, R. Bo'laak kasb ta'limi o'qituvchilarida tadqiqodchilik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi. O'zMU jurnali. 2018 yil. №3.-14-186.
3. Mavlonova R. va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: «Navro'z» nashriyoti, 2016.